

O`zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

«Pedagogika va psixologiya» ta`lim yo`nalishining

4-kurs talabasi

Masharipova Intizor Majiddinovna

BITIRUV MALAKAVIY IshI

**MAVZU: *Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o'yinlarning
mohiyati***

Fakultet dekani:

v.d.v.b.M.Allayarov

Kafedra mudiri:

ps.f.n.Z.SHerimbetova

Ilmiy maslahatshi:

p.f.n.A.Tilegenov

Ilmiy rahbar:

Z.Naimova

Nukus-2016

Mavzu: Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o'yinlarning mohiyati

Mundarija

Kirish-----	4
I bob. Bolalarning aqliy rivojlanishining pedagogika va psixologiyada o'rganilishi	
1.1. Aql tarbiyasining olimlar tomonidan o'rganilishi-----	10
1.2. Aqliy tarbiya va ta'limning umumiy tushunchasi-----	19
1.3. Didaktik o'yinlarning bolalarni ma'naviy va aqliy rivojlanishidagi o'rni---	28
I-bob yuzasidan xulosa-----	33
II-bob. Bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanishning mohiyati	
2.1. Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari--	35
2.2. Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish tajribasi--	39
Xulosa-----	56
Foydalanilgan adabiyotlar-----	58
Ilova-----	60

Kirish

Ilmiy ishning dolzarbligi: Bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan maktabgacha muassasa talimi tizimiga eng tajribali murabbiylar bекitib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi – deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida.¹ Albatta biz buyuk deya sifatlayotgan Respublikamizning kelajagi bilimli va manaviy, sog'lom avlodga bog'liqligi bugingi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, sog'lom avlodni shakllantirish oila va boshlang'ich sinflardan boshlanadi.

Maktabgacha talim jarayoni mustaqil davlatning talim-tarbiya tizimida umumiy o'rta talimning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayotining sermazmun davri bo'lgan maktabgacha davrdagi bolalarda xotiraning kuchi nihoyatda o'tkir, bolada bilim o'rganishga degan qiziqish katta bo'ladi.

Har bir bola o'zining shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonida oilaviy muhit, undagi an'analar, madaniy-ahloqiy udumlar, ijtimoiy turmush, kasb-kor, dam olish, umuman bo'sh vaqtni tashkil qilish masalalari muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasi ta'lim markazi sifatida bola tarbiyasida turli o'quv dasturlari, tavsiyalar bilan ish ko'rishdan tashqari, mahalla, Oilaviy muhit, bola bilan izchil munosabatda bo'ladigan shaxslarning tasirini ham hisobga olmoqlari kerak. Bular bolaning shakllantirish muhiti, bola hayoti, tasavvuri, aqlni boyitib boruvchi manba bo'lib, ular bola psixikasi, shaxsi, hayotiy tajribasi, faoliyatini boyitishning asosiy omili hamdir. Shu bilan bir qatorda bola har bir yoshda o'zini o'rab turgan muhitdan aynan o'ziga zarur bo'lgan hayotiy malakani oladi. Yuqoridagi muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa bolaning inson sifatida shakllanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiiyki bu jarayonning o'ziga hos qonuniyatlari mavjud.

¹I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» 7-bet

Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faol kishilarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Xalq ta'limi sohasida yagona sistemani yaratmay turib, jamiyatimizning ijtimoiy sohasida sifat o'zgarishlariga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish, uni faollashtirishning yetakchi yo'llarini topish, shu bilan birga ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab olib borish zarurligi to'g'risidagi ta'limotni amalda ro'yobga chiqarish, yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashni tubdan yaxshilashni taqozo etmoqda. Hozirgi yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va yetuk kishilar qilib tarbiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Yuqori aqliy madaniyat, malakali ijodiy mehnat qila olish qobiliyati.
- Shaxsning ijtimoiy yetukligi.
- Faol hayotiy yo'l tutish.
- Ma'naviy fazilatga ega bo'lish.
- Yuqori estetik madaniyat.
- Mukammal jismoniy kamolotga erishish.

Barkamol insonni tarbiyalash maqsadi xalq ta'limining hamma bo'g'inlari uchun yagonadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash maqsadlari asosida ularni yoshiga qarab belgilangandir. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuidan iboratdir. Ta'lim-taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy vositadir. Bu jahon tajribasida o'z tasdig'ini topganligi ma'lum. Bizning yurtimizda ham qadimdan ilm o'rganish va uning asosida mamlakatni ravnaq toptirish, bilimga intilishni ulug'lash o'ziga xos qadriyat sanaladi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq ta'lim muassasalarini milliy an'analарimiz asosida isloh etish, ularga zamonaviy texnologiyalarni olib kirishga dolzarb vazifa sifatida qaralib kelinmoqda.

Mamlakatimizning bugungi kundagi taraqqiyoti, dunyo miqyosida erishgan nifuzi jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov “Biz kim edik-u, kim bo’ldik?” degan hayotiy mulohazalarga alohida urg’u berdilar. Darhaqiqat, yillar davomida bosib o’tilgan yo’limizda erishilgan yutuqlarimiz havas va hayratga sazovordir.²

Prezidentimiz mamlakatimizning izchil rivojlanishini amalga oshirishda taraqqiyotning “O’zbek modeli”ni yaratdi. Bu yo’lning to’g’ri tanlanganligi o’z samarasini bermoqda. “2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to’g’risida”gi Farmonning qabo’l qilinishi ham mana shu evolyutsion jarayonning muhim tarkibiy qismi bo’ldi. Farmonga asosan mamlakatimizda umumta’lim maktablari qurilib obod etilishi bilan bog’liq ishlar muntazam davom ettirilmoqda. Joriy yildagi “Sog’lom ona va bola yili” Davlat dasturida yosh avlodning sog’lom, barkamol va yetuk insonlar bo’lib yetishishlari uchun bir qator vazifalar belgilab berildi.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Sog’lom ona va sog’lom bola yili” Davlat dasturiga muvofiq qisqa muddatli guruhlar uchun Xalq ta’limi vazirligi va MTMXQTMORO`M markazi tomonidan “Bilimdon” dasturi ishlab chiqildi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasasi pedagog-xodimlarining mas’ulligi ham muhim o’rin egallaydi. Chunki dastlabki bilim, ko’nikma va malakani bolalar shu maskandan oladilar. Bolalarga maktabgacha ta’lim muassasasida berilgan ilk bilimlar maktab ta’limiga poydevor bo’ladi. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun pedagog- xodimlarga bir qator talablar qo’yiladi: jumladan, o’z sohasini puxta tushinadigan, muayyan bilim va tajribaga ega, o’zini ijobiy tomondan namoyon qila oladigan, tashkilotchi, tashabbuskor bo’lishi, ishni puxta rejalashtiradigan, jamoa bilan ishlay biladigan va bolalar bilan tez til topishadigan hamda ta’lim jarayonini yangi texnologiyalar bilan olib boradigan

² “Maktabgacha ta’lim”jurnali №9, 2014 2-bet

bo`lishi kerak. Albatta, bola tarbiyasida tarbiyachining boshqaruvchanligi yuqori darajada bo`lsa, bolalar ham o`z hatti-harakatini shunga qarab boshqaradi. Maktabgacha davr-bu bolada motivatsiya, o`z-o`zini namoyon etyish, barpo qilish, tatbiq eta olish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishlari rivojlanadigan bosqichdir. Bu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratilishi lozim.

Ta`lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar yurtimizdagi tub o`zgarishlar, yangiliklarining asosi ekanligi ayni haqiqat deb aytish mumkin. Zero, har bir yurtning buguni va kelajagi tom ma`noda, ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi, barkamol avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, islohotlarning natijalari bilan belgilanadi. Qisqa muddatli guruhlarini tashkil etishda maktabgacha ta`lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni har tomonlama rivojlantirgan holda maktab ta`limiga tayyorlash maqsadi ko`zda tutilgan.³

Bolani rivojlantiruvchi omillar va muhitdir. Oila markazida madaniy-ma`naviy sharoit yaratilishi zarur. “Qush uyasida ko`rganin qiladi”,-deydi dono xalqimiz. Bola odatda taqlid qilishga moyil. Shu sababdan bolalik davrida ota-ona, bobo-buvilarning ta`siri katta bo`ladi.

Ota-onalar oilada bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash maqsadida Xalq ta`limi vazirligi tomonidan suratli qo`llanmalar tarzidagi 5 ta kitob nashrdan chiqarildi. Ular “Nutq o`stirish, o`qish va savodga tayyorlash”, “Matematik tasavvurlarni shakllantirish”, “Bolajon” tayanch dasturi asosida nasriy va she`riy asarlar to`plami”, “Sog`lom tanda—sog` aql” kabi qo`llanmalardir. Adabiyotlarda bolalarning maktabda yaxshi o`qishida yaqindan yordam beruvchi ko`plab mashg`ulotlar, voqea band suratlar, mantiqiy o`yinlar joy olgan. To`plamga kiritilgan sherlarni yod olish, rasmlarni chizish va mashqlarni bajarish ko`p vaqt talab etmaydi. Hikoya va she`rlarni o`qib

³ “Maktabgacha ta`lim”jurnali №9, 2014 2-bet

berish kichkintoylarning qiziqishini uygʻotadi. Oʻgʻil-qizlarni qahramonlar hatthi-harakatidagi yaxshi yoki yomon tomonlarni baholashga oʻrgatishi uchun ertaklarni birgalikda muhokama qilish usullari, tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish, ravon soʻzlash, toʻliq javob berish koʻnikmalari koʻrsatilgan. Ushbu kitoblar 5-6 yoshli farzandi boʻlgan oilalarga bepul taqdim etiladigan boʻldi. Ushbu amalga oshirilayotgan maqsadli ishlar ertangi kun davomchilari boʻlgan farzandlarimizning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zero, kelajak bugundan boshlanadi.

Ilmiy ishning maqsadi: Bolalar bilan olib boriladigan didaktik oʻyinlar aqliy rivojlanishining mashgʻulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, taʼlim mazmunini, faoliyatini tashkil etishning noanʼanaviy shakl, uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy ishning obʼekti: Maktabgacha taʼlim muassasalarining katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladi.

Ilmiy ishning predmeti: Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va koʻnikmalarni egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli oʻqishlari uchun boʻlajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba boʻlib xizmat qiladi.

Ilmiy ishning vazifasi: Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri—aqliy tushunchalarni yosh avlod ongiga bolaligidanoq singdirishdan iborat. Yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, doʻstlik, mehnatsevarlik, halollik kabi tuygʻularni uygʻotish, shakllantirish, maktabgacha taʼlim muassasalaridagi taʼlim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ilmiy ishning metodologik asoslari. Tadqiqotga mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida oilaning maʼnaviy jihatdan tarbiyalovchi rolini oshirish, uning maʼnaviyatni yuksaltirish masalalariga bagʻishlangan fikrlari, tavsiyalari va xulosalari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Ilmiy ishning metodlari: Bunda aqliy sifatlarni shakllantirishning samarali shakli sifatida davra suhbat, ekskursiya, tanlovlar, bahs-munozaralar, uchrashuv, amaliy treninglarni tashkil etish, kichik guruhlarda ishlash, ro`lli o`yinlar, juftliklarda ishlash, “Klaster”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Kubiklar”, “O`xshashini top...”, “Burchaklar”, “Muzyorar”, “Sinkveyn”, “Blits-o`yin” va boshqa interfaol usullardan foydalanish ko`zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Ilmiy ishning nazariy ahamiyati. Mamlakatimizda joriy etilgan maktabgacha ta`lim tizimi bolalarning aqliy-intellektual, jismoniy, shaxsiy rivojlanishlarini ta`minlash bo`yicha pedagogik jarayonni amalga oshirishga yo`naltirilgan bo`lib, uning tarbiyalanuvchilari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan bolalardan iborat.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati. Ma`lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy sifatlarni shakllantirish uzoq muddatli, uzluksiz pedagogik jarayon natijasida vujudga keladigan ruhiy-ijtimoiy, ma`naviy holatdir. Bu jarayonni amalga oshirishda ta`lim muassasalarida yaratilgan pedagogik shart-sharoit, sog`lom muhit va maqsadga yo`naltirilgan ta`lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etib, bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur uslubiy omil hisoblanadi.

Ilmiy ishning yangiligi: Shunday qilib, raqobat bardoshlikni oshirish maqsadida ta`lim tizimiga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalar o`quv mashg`ulotlariga hozirgi kunda yangicha tus bermoqda. Demak, hozirgi davr taqozosini his qilgan har bir o`qituvchi o`z ustida tinimsiz ishlashi, ma`lumotini oshirib borishi, zamondan orqada qolmasligi, ta`lim tizimiga kirib kelayotgan raqobat muhitiga o`zini tayyorlab borishi lozim.

Ilmiy ishning tuzilishi: Kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I bob. Bolalarning aqliy rivojlanishining pedagogika va psixologiyada o`rganilishi

1.1 Aql tarbiyasining olimlar tomonidan o`rganilishi

Aqliy tarbiya haqida tushuncha. Bozor iqtisodiyotida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini urgatish zarur. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o'zi etarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, sistemalashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo'llash lozim bo'ladi. Bo'larning hammasi dars vaqtida amalga oshirilib, aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish, talabalarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo'lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarni aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, malakasini hosil bo'lishiga ko'maklashadi, xotirasini mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o'tkazish kabi malakalarni o'stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik – bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi.

Aql – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib to tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlar yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida etishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qashg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi.

Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga boshqalar tarafidan qiladurgon zulm va jabrlarni shox, tish-tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurhon zarar va zulmlardan saqlanur. er yo'zidagi hayvonlarni asir qilib, buynidan bohlab iplari uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidir».

Abu Ali Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushoxada bilan idrok etishning birinchi bosqichi Aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. ozlashtirilgan bili, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u hakikiy Aql deyiladi.

Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni urganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino “Aql” deganda insonning tug’ma iste’dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo’ladi.

Nazariy aql – borlikdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.

Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko’rinadigan qobiliyatlardan.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta’lim berish g’oyasi birinchi bo’lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish mumkinligini ko’rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e’tiborga olgan holda kishi urganishi lozim bo’lgan hamma narsaga o’rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya’ni biz ta’lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim ko’nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 13 bo’limdan iborat maktabgacha ta’lim dasturini yozdi. Ya.A.Kamenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta’lim-tarbiyasiga, o’qish metodikasiga katta e’tibor bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otishni, Aqliy malaka ko’nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab maktabga o’qishga o’tishi munosabati bilan ularni, maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo’lishini ta’minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

Aqliy kamolot – bu yoshning usib tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ruy beradigan muqдор va sifat o’zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur’atlar

bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi ta'minlash ularni kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib koladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish Aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metod iva tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etish 1) bolaning imkoniyatlaridan tug'ri foydalanish, 2) bola organizmining umumiy charchashiga sabob bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha nagro'zka bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'illanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bo'larning hammasi maktabgacha tarbiya

yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqirlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'grisida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ular o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllandi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-xarakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga urgatish lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqea-xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni ko'zatishda namoyon bo'ladi. Tarbiyachi ko'zatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaktida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l ko'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatleri bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolani bilimlarini muvaffakiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish buyicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar tuhrisida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy-ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan kuyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta o'simligini, momaqaymoq o'simligi bilan solishtirish», «Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga solishtirish» didaktik o'yini va shunga uxshash tadbirlar o'tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qalmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishi xarakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday hoxishini sezishlari va rahbatlantirib borishlari kerak.

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvofahhiyatli o'kishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak atrofdagi narsalar ularning vazifasi ba'zi sifatleri ba'zi xossalari haqida qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tassavvurga ega bo'lishi kerak. U tabiat xodisalari ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlarini bilib oladi. Jonsiz tabiat o'simliklar hayvonlarni ko'zatish jarayonida bolalarda borliq to'g'risidagi tasavvurlar shakllanib boradi.

2. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok xotira, xayol tafakkur nutq. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar boqchasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi.

4. Aqliy malaka va ko'nimalarni rivojlantirish. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirishni ulardagi muxim va muxim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma – malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishga yordam beradi.

Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi.

Ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam – rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar boqchasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga

doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy – gigienik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyatlari asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish muvofiqdir:

Birinchi yo'l - bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinchi yo'li – maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Aqliy tarbiya va ta'lim metodlari.

Bolalarga ta'lim berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanish:

Ko'rgazmali, Og'zaki, Amaliy, O'yin metodlari

Kuzatish, Tushunish, Mashq, Didaktik o'yinlar

Ko'rsatish, Hikoya qilish, Mustaqil ish, Harakatli o'yinlar

TV dan foydalanish. So'zlab berish, Oddiy tajriba, Mashqli o'yinlar o'qib berish,

Intsenirovkalar, Suhbat va hakoza.

Kuzatish metodi: Bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum ob'ektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi: Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish - materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi: 3-4 yoshli bolalar bilan, 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

1.2. Aqliy tarbiya va ta`limning umumiy tushunchasi

Aql keng man`oda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va hayolni o`z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig`indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma`lum maqsadga qaratilgan bo`lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan, kattalarda mehnat faoliyati, bolalarda o`yin, o`quv faoliyati).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikirlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma`lum maqsad bilan ta`sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg`otishni, aqliy malaka va ko`nikmalarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o`z ichiga oladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bilimlar zahirasini egallash, aqliy faollikni va mustaqillikni, aqliy malaka va ko`nikmalar tarkib toptirish muvaffaqiyatli o`qish va bolg`usi faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartlaridir.

Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabda o`qishga o`tishi munosabati bilan ularni maktab ta`limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo`lishini ta`minlash tarbiyachilarning javabgarligini yanada oshiradi. Aqliy kamolat - bu yoshning o`sib,tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta`sirida bolaning aqliy faoliyatida ro`y beradigan miqdor va sifat o`zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha tarbiya yoshida bilim tez sur`atlar bilan boyib boradi,nutq shakllanadi,bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta`minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatiga ega bo`ladi.

Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarakatdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha tarbiya yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrining kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish-yasash) jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishiga ta'lim va tarbiya samaraliroq ta'sir etadi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jang'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olishi aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etish (bir tomonidan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha nagruzka bo'lmasligi) yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Olimlar aqliy rivojlanish va aqliy tarbiyaga oid ko'pgina masalalarni tadqiq qilmoqdalarki, bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyasining asosi bo'lgan sensor tarbiyaning mazmuni va metodini ishlab chiqish uchun zarurdir;

bolalarning ko`rgazmali - obrazli va tushunchalari - mantiqiy tafakkurini shakllantirish tadqiq etilmoqda,ularning bilish qobiliyatlarini shakllantirishning o`ziga xos tomonlari aniqlanmoqda.

Keyingi yillarda olib borilgan pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini kursatdi.Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim,malaka va ko`nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish,hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligini ko`rsatdi.

Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak-atrof to`g`risida kattagina hajmdagi keng bo`lib qoladilar,asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar,narsa va buyumlardagi,voqealardagi muhim bo`lmagan tomonlarini ajrata oladigan,ba`zi bir sabab-natijali bog`lanishlarni bilib oladigan bo`lib qoladilar,ularda o`quv faoliyatining dastlabki kurtaklari shakllanadi.Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to`laqonli aqliy rivojlanish ro`y beradi,shu sababli pedagoglarning vazifasi-bolaga muayyan maqsadni ko`zlab tarbiyabiy ta`sir ko`rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

2.Aqliy tarbiyaning ruhiy va fiziologik asoslari

Bola har doim buyumlar va hodisalar orasida bo`ladi,doimo biror bir narsa bilan tanishadi,nimanidir bilib oladi,ushlab ko`radi,hidlaydi,totib kuradi,nimagadir quloq soladi.Shu tariqa bola dunyoni bilib boradi. Tevarak-atrofdagi buyumlar,tabiat bolaning sezgi organlari (ko`z,quloq va hokazolar) analizatoriga ta`sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g`adir-budur, silliq-yaltiroq, hushbo`y va hokazolarni bilib olishda yordam beradi.

Sezgi atrofidagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to`g`risida bilish tajribasini to`plab borishi mumkin.

Idrok ancha murakkab ruhiy jarayon bo`lib, sezgilar asosida hosil buladi, bola olamni qo`lida ushlab ko`rib, qarab chiqib va yeb ko`rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo`y, mazali va hokazo tarzda idrok qiladi. Bola olamni yaxlit bir buyum tarzda tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator-ko`rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi.

Analizatorlarning bir vaqtning o`zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to`laroq bilish imkonini beradi.

Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog`idan boshlaboq aqliy jihatdan to`g`ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko`proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug`dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya`ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e`tibor berishlari kerak.

Tushunchalar, ilmiy g`oyalar, tevarak-atrof hayot va uning hamma boyligi, uning har xil ko`rinishdagi bilimlar, faktlar yosh avlod o`zlashtirib olish lozim bo`lgan bilimlar jumlasiga kiradi. Bolalarning bilim, malaka va ko`nikmalaridan o`zlarining har xil faoliyatida, mehnatida yaxshi foydalanish – bilishning haqiqiy yo`lidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilishning umumiy qonuniyatlari uning bilish faoliyatida borliqni bilib olishda namoyon bo`ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasining erishgan natijalari shuni ko`rsatdiki, bolaning taffakurini ko`rgazmali-harakatli, ko`rgazmali-obraz va so`zli-mantiqiy yo`li bilan shakllantirish kerak. Bu degan so`z, bolalarni avvalo ko`ra oladigan, seza oladigan buyumlar bilan tanishtirib, keyinchalik tasavvur shakllariga o`tish mumkin ekan. Metod va usul tanlashda ham yuqoridagilarga rioya qilish zarur. Shuning uchun ham ilk va bog`cha sensor aqliy tarbiyaning muhim bo`limi hisoblanadi.

Bolada nutq payda bo`lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to`la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi.

Ona bolasiga o`yinchoqni uzatar ekan: «Mushukchani ol», - deydi. Bola qo`lini cho`zib uni oladi. Bolaning ko`rib idrok qilishi (u o`yinchoqni ko`rib turibdi) eshitish bilan qo`shiladi (bola onasining o`yinchoqni nima deb aytganligini eshitadi), hissiy idrok bilan so`z o`rtasida o`zaro ta`sir sodir bo`ladi. Agar ona «mushukchani ber», «mushukchani olib kel» deb bir necha marta takrorlasa, bola muayyan o`yinchoqning nomini yaxshi eslab qoladi. Pirovardida «mushukcha» degan so`z bola hayolida ma`lum bir buyumni hosil qiladi.

Bolalarning tushunishi va ularda nutqning paydo bo`lishi ularning aqliy jihatdan o`rishining ancha yuksak bosqichidir.

Bola buyumni o`zi ko`rib, ushlab turgandagina emas, balki buyum to`g`risida katta yoshdagi kishilar gapirib berganda ham bilib oladi. Bu bilish jarayonini ancha tez, chuqur va qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Ona tilidagi so`zlarni egallash va so`z ma`nolarini asta-sekin tushinib borish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy jihatdan rivojlanishida katta ro`l o`ynaydi.

Ulug` rus fiziologi I. M. Sechenov bunday deb yozgan edi: «Bola gapirishni o`rganib olgandan keyin unda tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqish va ularni bilishga intilish oshib boradi, bu hol bolaning onasiga: nega stol yurmaydiyu, quyosh esa oyoqsiz yuradi, kechqurun u qayerga yashirinadi, nima uchun shamol g`uvillaydi? – kabi savollar berishga sabab bo`ladi».

Bola 3 yoshga to`lganda undagi so`z zahirasi 1200 – 1500 taga etadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzda foydalanish imkoniyatini beradi. Bola atrofdagilarning nutqini qanchalik yaxshi tushunsa, tarbiyachining so`zi bolalar bilan olib boriladigan ishlarda shunchalik ko`p o`rin egalaydi.

Ikkala signal sistemasi, ya`ni hissiy idrok bilan so`zning o`zaro aloqada bo`lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Kattalar nutqni tushunish bolalar bilim doirasining kengayishiga imkon beradi, eng oddiy aloqa va munosabatlarni tushunchalarni hamda 6-7 yoshlarga kelib baʼzi bir mavhum tushunchalarni (balandlik, doʻstlik va hokazolarni) egallab olishlariga yordam beradi.

Bola kattalarning topshirigʻini, uyda va bolalar bogʻchasida oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatishga doir baʼzi bir ishlarni tartib bilan bajarib borishi natijasida endi u oʻzini unchalik qiziqitirmaydigan, lekin topshiriqni yoki bolalar jamoasining talablarini bajarish uchun zarur boʻlgan ishlarni ham bajarishga odatlanib boradi.

Dastlabki vaqtlarda bolaning diqqati beqaror boʻladi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolalarning faoliyatini yoʻlga qoʻyishi va topishiriqlarni aniq belgilab berishi kerak. Shunday qilinganda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirib borishga sharoit yaratiladi.

6-7 yoshlarga kelib, bolalarda oʻz diqqatini musaqil suratda toʻplash malakalari hosil boʻladi, lekin ular diqqatni uzoq vaqt bir joyga qarata olmaydilar. Shuning uchun bolalarning mashgʻulot, oʻyin, dam olish, ovqatlanish va uxlash vaqtlarini toʻgʻri taqsimlash lazim.

Bolalarning aqliy jihatdan oʻsishida xotira katta ahamiyatga ega. Xotira inson hayotida muhim roʻl oʻynaydi. Bola tugʻilganida hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga koʻtarilib, Biron bir foydali ish qilish uchun koʻpgina bilim va malakalarni eslab qolishi va xotirisida saqlashi lozim.

Xotiraning rivojlanishi bolaning hayot sharoitlariga, uning taʼlim va tarbiyasiga bogʻliq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi koʻpincha beixtiyor tarzda boʻladi, bunda bola buyumlarni amaliy mashgʻulotlar yoki oʻyin oʻynash jarayonida oʻz-oʻzidan esda saqlab qoladi.

Maktabgacha tarbiya yoshida beixtiyor esda olib qolish bilan birga ixtiyoriy eslab qolish kurtaklari ham paydo boʻla boshlaydi. Bu oʻzgarishlar, bolalar faoliyatining murakkablashuvi kattalar talabining ortishi natijasida roʻy beradi.

Masalan, kattalar boladan biror topshiriqni hozir emas, balki bir qancha vaqtdan keyin bajarishni talab qiladilar (buning uchun topshiriqni ixtiyoriy ravishda eslab qolish kerak) yoki bir necha kun oldin (masalan, sayr vaqtida,dam olish kuni uyda) nima bo`lganligini aytib berishni taklif qiladilar, buning uchun esa o`sha narsalarni yodga tushirish lozim.

Bolaning hayoli u syujetli o`yinlar o`ynay boshlaganida, ularga kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o`sha ertaklarga qiziqish orqali hayolning dastlabki alomatlari ko`rinadi. Ammo boladagi hayollar ko`proq konkret vaziyatga bog`liq bo`ladi (masalan, qo`g`irchoq ko`rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo`lsa, biror narsani tashiydi va hokazo).

Katta bog`cha yoshiga kelganda bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola hayolida sezilarli o`zgarish yuz berayotganini kuzatish mumkin. Bola ko`rganlari, eshitganlari, ishlagan rasmlari,buyumlari to`g`risida maroq bilan anchagina yaxshi hikoya qilib berishi mumkin. Bolalarning bunday hikoyalari faqat real borliqni aks ettirib qolmay, balki endi ularni ijodiy boyitib, hatto o`zgartirib ham hikoya qilib berishlari mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hayolini rivojlantirish ularni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

3. Aqliy tarbiyaning vazifalari.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyalashning roli kattadir. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari, ularning aqliy faolligini rivojlantirish, mustaqillik, aqliy malaka va ko`nikmalarni egallab olishlari ularning maktabda muvaffaqiyatli o`qishi va bo`lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo`lib xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning

aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma - xil usullarini rivojlantirish.
3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar sistemasini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak - atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati, va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hashorat va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi.

Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi.

Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni

rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirishni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his - tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi va ongliligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillik xos bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuygusi va baynalminalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

4. Bolalarni aqliy tarbiyalash va ularga ta'lim berishning nazariy asoslari.

Ta'lim-maktabgacha tarbiya yoshidagi boalarning bilish qobiliyatlarini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim kuzatuvchilik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jismoniy estetik va mexnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xam zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy-gigienik ko'nikmalar asosiy harakatlar o'rgatiladi.

Ular madaniy axloqiy qoidalarni o'zlashtirib oladilar ularda axloqiy sifatlar, mehnat, tasviriy san'at, musiqa, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalar tarkib toptiriladi.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

1.3. Didaktik o'yinlarning bolalarni ma'naviy va aqliy rivojlanishdagi o'rni

Didaktik o'yinlar bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Didaktik o'yin-bu bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodi. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamiyatga aralashtirish uchun har xil rejalar, vazifalarni qo'rqqmasdan bajarishi uchun foydalanadi. Didaktik o'yin tarbiyaning vazifasi hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, shuning uchun unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadi.

Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o'yinlarni misol sifatida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun «Dehqonlar nimalarni etishtiradi», «Kim ko'proq narsaning nomini ayta oladi» va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin. Didaktik o'yinlar bolalarning tevarak atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'z yakka tajribalari va mashg'ulotlarida olgan bilimlarini amalda qo'llanishga o'rgatadi. Ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodkorlik kuchlarni, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini engilliroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradi. Didaktik o'yinlar kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsatlarida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bolsa, bolalarga u shunchva ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinning kerakli tomoni uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oya. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziquvchanligini uyg'otadi, ko'pincha bul g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi. Masalan : «Xaltachada nima bor» yoki «Kim qanday qichqiradi» va boshqalar. Tarbiya uchun o'yin natijasi hamma vaqt

bolalarning bilim egallashida, aqliy faoliyatida, o`zaro munosabatlarida erishgan yutuqlardan ko`rsatkichi hisoblanadi.

Uning mazmuni, g`oyasi, harakatlari va qoidalari o`zaro bir-biri bilan bog`liq bo`lib, ayniqsa ularning birovi bo`lmasa ham o`yinda o`tkazib bo`lmaydi. Didaktik o`yinining o`yin faoliyati sifatidagi o`ziga xos xususiyati shundan iborat, tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-biri bilan o`zaro munosabatlari o`yin tarzida bo`ladi. bolalar ko`pincha o`yin mazmuni bilan belgilanadigan va o`yin harakatlari talab etadigan birdan bir rolni tanlaydi. Masalan : do`kon o`yinida bilish mazmuni shundan iborat xaridor bolalar o`zlari sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishi, sotishi bolalar bo`lsa talab qilingan narsaning nima ekanligini xaridor aytgan belgilar bo`yicha bilib olishlari kerak. O`yin qoidalarini xaridorlarning oladigan narsalarni olishi, sotishiga yaxshi munosabatda bo`lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko`rib chiqishi va uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytishi va pul to`lashidan sotuvchilarning vazifasi bo`lsa xaridorlar so`zlayotganda ularni yaxshi e`tibor bilan t`inglash, so`zlarini bo`lmaslik, so`ragan buyumlarini olib, qog`ozga o`rab berishdan iborat bo`ladi.

Didaktik o`yinining ahamiyati shundan iborat, u olingan bilimlarini turlicha qo`llanish uchun, aqliy faoliyatini kuchaytirish uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunday bolalar yo`l qo`yilgan xatolar va ular nimadan qiynaladiganligi ma`lum bo`ladi. Tarbiyachi bu xatolarni tuzatish va qiyinchiliklarni engishda birdan bir zarur vosita hisoblanadi. Yakka tartibdagi didaktik o`yinni paydo qilish bilan tarbiyachi o`zaro munosabatlar uchun qulay sharoit yaratadi, aqliy faoliyatda orqada qolishning sabablarini aniqlaydi, ko`p mashg`ulot ishlatish bilan bunday bolalarning o`sish darajasini oshiradi.

**2. Didaktik o`yinining mazmuni** bolalar bog`chasida ta`lim-tarbiya dasturida bayon etilgan va quyidagilarni o`z ichiga oladi.

a) Buyumlar ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi haqida bilimlar olish

b) Mehnatning har xil turlari va insonlar hayotidagi roli haqidagi bilimlar

v) Tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari haqida bilimlar

g) Dastlabki matematik tushunchalar : son, sanoq, uzunlik, shakl, vaqt va boshqa tushunchalar berish.

Didaktik o`yinlar ularning ta`lim-tarbiyaviy vazifasi mazmuni, turlari bolalar bog`chasining ta`lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlari bo`yicha ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhiningsh o`ziga xos ma`naviy fiziologik ahamiyatini e`tiborga olgan holda didaktik o`yinlarning tutgan o`rni va vazifasi, mazmuni, o`tkazish usullari belgilab berilgan. Masalan : 2 yoshdan 3 yoshgacha bo`lgan bolalar bilan o`tkaziladigan didaktik o`yinlarda asosiy maqsad bolalarni ranglarni bir-biridan farqlashga va nomini aytishga o`rgatish, har xil o`lchamlarni (katta, kichik) shakllarni bilishga, ko`rib va eshitib qabul qilish, diqqatni mayda harakatlarni o`stirishga yordam beradigan o`yinlar o`tkaziladi. Masalan: «Kattalar va kichkinalar», «Qo`g`irochqni sayrga olib chiqish uchun kiyindiramyiz», «Bu nimaning ovozi», «Xaltachada nima bor» va shunga o`xshagan o`yinlar.

Didaktik o`yin davomida bolalar o`rtaga qo`yilgan masalani echishda sabrli bo`lishga, qiziquvchanlikka, diqqat bilan tinglab, baland pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o`rgatib boriladi. Musiqiy didaktik o`yinlar orqali tovushlarni bir-biridan ajratishda ritmik usulni ajrata olish, qo`shiqlar va chalinadigan asboblarning ovozina tembirini ajratish, tovushning dinamikasini ajrata olish uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Didaktik o`yinlar foydalaniladigan materiallarning tabiatiga qarab, shartli ravishda buyumlar bilan o`ynaladigan o`yinlar, stol ustiga qo`yib o`ynaladigan o`yinlar va og`zaki o`yinlarga bo`linadi.

**1.Buyumli o`yinlar.** Xalq didaktik o`yinchoqlari mozayka turli tabiiy materiallar yaproq urug`lar bilan o`ynaladigan o`yinlar. Xalq didaktik

o`yinchoqlariga quyidagilar kiradi. Bir xil va bir necha rangdagi yog`ochlardan ishlangan konuslar, bochkalar, sharlar, zamburg` va boshqalar. Bu o`yinlar bolalarni rang, hajm shaklni idrok qilishni rivojlantiradi.

2.Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar

Tevarak atrof haqidagi taassurotlarni aniqlashga bilimlarni sistemalashga qaratilgan bo`lib, aql tafakkur jarayonlari va operatsiyalari rivojlantiriladi.

3.Og`zaki o`yinlar. Bu guruhga «Bo`yoqlar», «Guldir gup», «Qora va oq» va shu kabi katta miqdordagi xalq o`yienlari kiradi. Narsalar bilan o`tkaziladigan didaktik o`yinlarda tarbiyasi bolalarni narsalar, ularning mazmunlari va ular bir-biridan farq qiladigan belgilari bilan ularni ushlatish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi.

Pedagogik jarayonda didaktik o`yinlar ayniqsa bolalarning mustaqil faoliyati sifatida belgili bo`ladi, bu narsa unga rahbarlik etishning tabiatini belgilaydi.

Tarbiyachi ta`lim-tarbiyaviy vazifalar va bolalarning imkoniyatiga mos keladigan didaktik o`yin va o`yinchoqlarni tanlaydi, ularni o`yinni o`tkazishning turli usullari, qoidalari bilan tanishtiradi va bu qoidalarining bajarilishni kuzatib boradi. Tarbiyachi ilk maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni buyum va narsalarning mazmuni va sifatlari, ularning foydalanish shakllari, ularning hajmi, rangi va boshqa haqidagi taassurotlarni shakllantirish uchun xadq didaktik o`yinchoqlaridan, tanish buyumlar tasvirlangan qirqilgan rasmlar va kubiklardan foydalanadi. O`yin va o`yinchoqlar bolalarga erkin va mustaqil foydalanish uchun beriladi.

Tarbiyachi ularni turli harakat vositalari va o`yin qoidalari bilan tanishtiradi. Didaktik o`yinlarning har biri bola uchun motor, sensor fikrlash kabi qator o`yin vazifalarini keltirib chiqaradi. Ilk maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni didaktik o`yinlarga o`rgatish o`yinining o`zida ketadi. Tarbiyachi o`yin davomida uning qoidalarini tushuntiradi. Takror o`yinlarda u qoidalarni har bir

bola tomonidan bajarishga erishadi. Tarbiyachi o`yin mazmuni va qoidalarining o`zlashtirish darajasiga qarab, bolalarga mustaqil turda o`ynashga imkon beradi, o`zi bo`lsa o`yinni kuzatib boradi.

O`rta va katta guruh bolalariga asoslangan didaktik o`yinlar mazmunida ularning ochayotgan tajribasi atrofdagi hayot bilan tanishishga yangi vazifalarni va aqliy faoliyatning rivojlanishi hisobga olinadi. O`rta va katta yoshdagi bolalarni tanishtirar ekan, tarbiyachi ularga bir ikki kerakli qoidalarining ahamiyatini ochib beradi. Qolgan qoidalar va ayrim o`yin harakatlarni o`yin davomida aniqlaydi. Tayyorlov guruhlaridagi bolalarning didaktik o`yinlaridagi natijaga erishish, o`ynash, topqirlik, epchillik va chidamlilik belgisi bo`la olish imkoniyatining bor bo`lishi qiziqtiradi. Tayyorlov guruhlarida ko`pchilik bolalar shashka va shaxmat o`yinini o`rganadi.

Tayyorlov guruhida bolalarni o`yinning mazmuni va qoidalari bilan o`yi boshlanguncha tanishtiriladi. Bunda tarbiyachi bolalar bilan birgalikda qoidalarni analiz qiladi, ularning ahamiyatini tushuntiradi. U o`yinlarni, qoidalarining ayrim bolalar tomonidan bajarilishini kuzatib borar ekan, tortinchoq bolalarga yordam beradi, zarur bo`lganda yuzaga kelgan bahslarda aralashadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o`yin yoki o`yinchoqlarning barcha imkoniyatlarini mustaqil tarzda foydalana olmaydi. O`yinchoq bilan o`ynaladigan o`yinning belgisi varianti o`zlashtirib olinguncha, unga bo`lgan qiziqish so`nadi. Tarbiyachi bunday sharoitlarda o`yinning yangi variantini ko`rsatishi yoki katta yoshli bolalar bilan uni o`ylab topishi lozim.

I-bob yuzasidan xulosa

Didaktik o`yin davomida bolalar o`rtaga qo`yilgan masalani echishda sabrli bo`lishga, qiziquvchanlikka, diqqat bilan tinglab, baland pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o`rgatib boriladi. Musiqiy didaktik o`yinlar orqali tovushlarni bir-biridan ajratishda ritmik usulni ajrata olish, qo`shiqlar va chalinadigan asboblarning ovozina tembirini ajratish, tovushning dinamikasini ajrata olish uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Didaktik o`yinlar foydalaniladigan materiallarning tabiatiga qarab, shartli ravishda buyumlar bilan o`ynaladigan o`yinlar, stol ustiga qo`yib o`ynaladigan o`yinlar va og`zaki o`yinlarga bo`linadi.

Xulosa o`rnida ta`kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxs ma`naviy barkamolligining asosini tashkil etib, bunda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi axloqiy sifatlarni o`zlashtirishga bo`lgan qiziqish, ehtiyojni to`la qondirishga yordam beruvchi, pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy echimini ta`minlaydi.

Estetik tarbiya bolalarni xar tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muxim qismi bo`lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog`langan xolda amalga oshiriladi.

Bugungi kunda, mamlakatimiz oliy ta`lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida ta`limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qo'yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachisi eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni to`la anglab yetishi zarur. Faqatgina

maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim qadriyat ekanligi ni tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallashi juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani faollikka undash, uni rivojlantiruvchi tavsifdagi faoliyatga jalb etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi bo'lib, mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsional ko'rinishlariga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy tarbiyachi psixologik-pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan holda bola shaxsi rivojlanishi uchun uning ta'sirini hech narsa, hatto yuqori toifali ta'lim muassasasi ham bosa olmaydigan oila ekanligini anglab yetadi. Mustaqil ta'limning maqsadi -tarbiyachi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirib borishdir.

II-bob. Bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanishning mohiyati

2.1. Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari

O'yin – bolalik davrda paydo bo'lib uning butun hayoti davomida birga bo'ladigan asosiy faoliyat. O'yin masalasiga ko'pchilik tadqiqotchi pedagog, psixolog, filosof, sotsiologlar alohida e'tiborga ega bo'lmoqda. O'yin- insoniyat jamiyatining ajralmas qismi. Olimlar o'yinni biologik sabablarga asoslangan faoliyat degan qarashni ilgari suradi.

Ko'pchilik hozirgi zamon olimlari o'yinni jamiyatning rivojlanishining belgisi bosqichlarida shakllanadigan faoliyatning alohida turi deb tushuntiradi.

XX - asrning boshida tadqiqotchilar o'yin birinchimi yoki mehnat birinchimi degan masalani qo'ygan. O'yin mehnatdan avval paydo bo'lgan degan fikrlar aytilgan. O'yin – bu mehnatning bolasi degan nemis psixologi V.Vuntning fikrini keyinroq filosof G.V.Plexanov o'zining «Manzilsiz xatlar» degan mehnatida davom ettiradi. Uning fikricha o'yin ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzumida paydo bo'ldi deb hisoblaydi. O'yinning ijtimoiy ahamiyati majdaniy boyliklarni avloddan avlodga yetkazish vositasi bo'lib xizmat etishda. Kattalar bolalarning mehnat harakatlarini chiniqtirish uchun o'yinchoqlar ishlagan (yoy, arqon va b.). Bola o'yin vaqtida kerakli zarur odat va qobiliyatlarini o'zlashtirgan.

Texnikaning rivojlanishi, murakkab mehnat qurollarining takomilashishi bilan o'yinchoq avtomatlar paydo bo'ldi. Boshqacha aytganda o'yinchoq mehnat qurollarining obrazini bergan.

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy rivojlanishi davomida o'yin bola shaxsini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning yordamida bola o'rab turgan muhit bilan muomalaga kirishadi, ko'p asrlar davomida insoniyat jamiyati shakllantirgan amaliy va aqliy faoliyat usullarini, axloqiy normalarini o'zlashtiradi.

Shunday qilib o`yin nazariyasi insoniyat jamiyatning mazmuni, ijtimoiy tabiati, uning tarixiy kelib chiqishi haqidagi ma`lumotlarga asoslanadi.

**O`yin ijtimoiy xarakterge ega.** Bolalarning o`yinlari kattalar dunyosi bilan chambarchas bog`liq. K.D.Ushinskiy o`zining «Odam tarbiya predmeti sifatida» degan mehnatida o`yin o`rab turgan atrof ijtimoiy muhitni ifodalaydi deb tushuntiradi.

Hayotining dastlabki yillarida bolaning predmetlarga degan qiziquvchanligi ortadi. Bola o`yinchoq plitada ovqat pishirishi, qo`g`irchoqni cho`miltirishi mumkin. A.A.Lyublinskaya o`yinni bola uchun «yarim o`yin-yarim mehnat» deb atagan. Rolli o`yinlar bolalarda 4-5 yoshlarida kuzatilishi bilan birga odamlar orasidagi muomalani ifodalaydi. Bola kattalar bilan muomalani o`zlashtirib o`yin usullarini umumlashtiradi. O`yin bola uchun ijodkorlik asosi, uni rivojlantiruvchi bo`lib xizmat etadi.

Hozirgi pedagogik nazariyada o`yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat turi deb qaraladi.

O`yinda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy talablari ifodalanadi. Bola mustaqil bo`lishga harakat etadi, kattalar hayotida faol qatnashishga tirishadi. Bolaning rivojlanishi bilan birga uning dunyosi kengayadi, kattalarning faoliyatida qatnashishga o`xshagan ichki talabi kelib chiqadi. O`yinda bola kattalarga taqlid qilib harakat etadi. O`ynab bola mustaqil harakat etib, o`z istaklarini, tushunchalarini, hislarini erkin aytadi.

Biz bolalarga ko`p o`rgata beramiz : sekin yur, qulab ketasan, qo`lingni yuv, har narsani o`ylab topa berma deb hamisha koyiymiz. Bu noto`g`ri. O`yinda bola hamma narsani ishlashi mumkin : kemada suzadi, samoda uchadi, o`quvchilarni maktabda o`qitadi va boshqalar. O`yinda bola o`z kuchlarini sinab ko`radi.

Bola o`sib va rivojlanib boruvchi mavjudot. Harakat –uning o`sishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi. Harakat barcha o`yin turlarida amalga oshiriladi.

O`yin bolaning psixik jarayonlarini shuning ichida hayolini shakllantirishga asos yaratadi. Bola o`z hayoliga ishonadi.

O`yinining pedagogik nazariyasida uning tarbiya vositasi sifatida o`rganishga katta diqqat beriladi. Bola qanday da bir rolni bajarib boshqa (shifokor, san'atkor, haydovchi) shaxsning xususiyatlarini, kasbini o`zlashtiradi.

O`yinda bolaning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi, bir narsalarni o`ylab topadi, zarur o`yinchoqlarni, kostyum elementlariga qo`shimcha yasashi mumkin.

Shu bilan birga o`yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hayotini tashkil qilish shakli turida tan olinadi. Bolalar ijtimoiy xulq-atvor odatlarini o`zlashtirib boradi. Albatta bu kattalarning yordamida amalga oshiriladi.

O`yinlar mazmuni, tashkillashtirish turlari, o`yin materiallariga qarab turlarga ajratiladi. F.Frebel o`yinni aqliy, sensor, motor turlariga bo`ladi. Nemis psixologi K.Gros o`yinni harakatli, aqliy, sensor rivojlantiruvchi degan turlarga bo`ladi.

P.F.Lesgaft o`yinni:

1. Bolalarning o`zlari o`ylab topgan o`yinlar
2. Kattalar o`ylab topgan o`yinlarga bo`ladi, ya`ni birinchisi ijodiy o`yinlar, ikkinchisi qoidali o`yinlar deb bo`lish tan olindi.

Ijodiy o`yinlarda hech qanday qoida yo`q. Bu qoidalarni bolalarning o`zlari belgilaydi.

Qoidali o`yinlarda (harakatli, didaktik) bolalar ijodkorlik paydo etib, yangi variantlar o`ylab topadi, bir necha o`yinni biriktirib yangi o`yin yaratadi.

Ijodiy o`yinlarda bola o`z tashabbusi bilan, o`ylab topib mustaqillikni bildiradi. Bu o`yin turiga :

1. Rejissiyorlik
2. Syujetli-rolli

3. Teatrlashgan

4. Qurilish materiallari bilan o`ynaydigan o`yinlar kiradi.

Qoidali o`yinlarga didaktik va harakatlar o`yinlar kiradi. Bu o`yin turi bolani o`ziga tortib unda o`yin harakatlarini bajarish istagi turadi, u qandaydir bir natijaga erishadi, yutadi va boshqalar. Bu narsa bolaning xulq-atvorini irodali qiladi. Bola o`z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan taqqoslashni o`rganadi.

Shunday qilib, qoidali o`yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta`lim-tarbiya berishning asosiy vositasi.

2.2. Bolalarni aqliy rivojlantirishda didaktik o`yinlardan foydalanish tajribasi

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari o'z sohasi bo'yicha yangilik va o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida malaka oshirishadi. Ma'lumki, malaka oshirish kurslarida o'tiladigan darslarda o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lish tamoyillariga tayanadi. Chunki mazkur tamoyil "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Shu bois, tinglovchi dars jarayonida hadiksiramasligi, qo'qmasligi, ranjimasligi, izza bo'lmasligi, mustaqil fikrlashi uchun o'qituvchi tomonidan sharoit yaratiladi. Buning uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'riladi.

Darsda interfaol metodlarning eng maqbul turlarini tanlash, tarqatma materiallar tayyorlash, rivoyatlar keltirish katta mehnatni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining kasbiy mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki 2014-yil "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinib, davlat dasturida:

- “Maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini oshirish”;
- “Ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish”;
- “Maktabgacha ta'lim yo'nalishida malaka oshirish tizimidagi o'quv-reja va dasturlarni xalqaro talablar asosida takomillashtirish” kabi muhim talablar qo'yilgan.

Ushbu talablarni malaka oshirish kursida o'tiladigan mavzular mazmuniga singdirish maqsadga muvofiq. darslar jarayonida tinglovchi yangiliklarga intiluvchan, ijodiy yondashuvchan, o'zgarishlarni tez qabul qiladigan bo'lishiga erishish maqsadi amalga oshiriladi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” mavzusidagi darsda tarbiyachilar “Bolajon” dasturida har qaysi guruhda berilgan ta’lim-tarbiya vazifalarni tahlil qilishi, matematika mashg’ulotida interfaol usullarni qo’llay bilishi bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalarni egallashlari lozim. Dars boshida “Zanjir” usulida tinglovchilarga “maktabgacha yosh davrida bolalarga o’rgatiladigan tushunchalardan bittasini aytish” topshirig’i berilib, ular navbbati bilan aytishadi. So’ngra tarbiyachi “Bolajon” dasturida berilgan ta’lim-tarbiya vazifalarining bola yoshiga qarab murakkablashuvi, mashg’ulotlarda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Klaster”, “IMYN” (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi), “Ro’lli o’yin”, “Muammoli vaziyat yaratish” usullarini qo’llash bo’yicha tushuncha berib, namunalar ko’rsatadi. Masalan, “Kvadrat bilan doirani farqlashga o’rgatish” mavzusidagi mashg’ulotda tarbiyachi IMYNdan foydalanish uchun guruh bolalarini dastro’mol va soat rasmi tasvirlangan kartochkalarni tanlashlariga qarab ikkiga ajratadi.

Mavzu: “Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi”⁴

TOPSHIRIQ: “Sehrgar” o’yini.


Agar siz sehrgar bo’lib qolsangiz, doira va kvadratlarni nimalarga aylantirgan bo’lardingiz?

-“Dastro’molcha” guruhi plakatga chizilgan kvadrat shakllarini;

-“Soat” guruhi plakatga chizilgan doira shakllarini qo’shimcha chizish orqali ikkinchi bhir narsaga aylantiradi. Har bir bolaga bittadan shakl to’g’ri kelishi kerak. “Dastro’molcha” guruhidan bitta bola birinchi kvadratni uychaga aylantirsa, “Soat” guruhidan bittasi doirani to’pga aylantirib, o’yinni davom

⁴ “Maktabgacha ta’lim”jurnali №6, 2014, 7-bet

ettiradilar. Ushbu o`yinni o`ynayotgan bolalar faoliyati tushirilgan video tasvir monitorida ko`rsatiladi.



MASHG`ULOTDA MUAMMOLI VAZIYAT YARATISHGA
MISOL. Tarbiyachi bolalarga o`zicha ertak to`qib aytib beradi. Kunlardan bir kun tulki, ayiq, bo`ri musobaqa o`ynabdi. Musobaqa sharti: mashinada o`rmonga kim birinchi yetib borish. 3ta mashina bor ekan. Birinchi mashinaning g`ildiragi kvadrat, ikkinchisidiki doira, uchinchisidiki esa uchburchak ko`rinishida ekan. Tulki doira g`ildiragida, ayiq kvadrat, bo`ri uchburchak ko`rinishidagi mashinalarda yo`lga otlanishibdi.

Qaysi biri birinchi bo`lib o`rmonga yetib boradi? Bolalar o`ylab, fikrlab javob topishadi.

”Bolajon” dasturining maqsadi, vazifasi, tamoyillari va ungi amaliyotga tatbiq qilish” mavzusidagi darsda dasturning maqsadi, vazifasi, tamoyillari yozilgan slayd namoyish etiladi va mohiyati tushuntiriladi. So`ngra tinglovchilar 2ta guruhga ajratiladi. Birinchi guruh ichki, ikkinchi guruh tashqi doira hosil qilib

turishadi. O`qituvchining topshirig`iga ko`ra, tashqi doiradagilar soat strelkasi, ichki doiradagilar esa soat strelkasiga teskari ko`rinishda musiqaga hamohang harakat qilishadi. Musiqa to`xtagach, harakatlanayotgan bolalar harakatlanishdan to`xtab, ikki doiradagilar bir-biriga qarab juft bo`lib turadilar. Oldin ichki doiradagilar, keyin tashqi doiradagilar "Bolajon" dasturining 9 ta tamoyilini o`z juftiga aytib beradi. So`ngra tinglovchilar 4 ta guruhga ajratiladi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

-jismoniy tarbiya mashg`uloti bo`yicha "Bolajon" dasturidan foydalangan holda 5 ta mavzu tanlash;

-nutq o`stirish mashg`uloti uchun 5 ta mavzu;

-matematika mashg`uloti uchun 5 ta mavzu;

-tabiat bilajn tanishtirish mashg`uloti uchun 5 ta mavzu tanlanadi.

Vaqt tugagach, guruhlar taqdimoti o`tkaziladi. Javoblar tahlil qilinadi. Xatolar to`g`rilanib, xulosa qilinadi. Har bir dars oxirida o`tilgan mavzuga tegiushli bo`lgan test savollari yechiladi. Dars jarayonida charchoqni yozuvchi o`yinlar o`ynash mumkin. Masalan, "Bo`ron", "Boshqaruvchini top", "Venegred", "Qarsak chal", "Quvnoq sharchalar" va shu kabilar. O`qituvchi dars jarayonida axborot texnologiyasidan va interfaol usullardan o`rinli foydalansagina tinglovchilar faolligini ta`minlay oladi.

Didaktik o`yinlar ta`limiy o`yin sipatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o`yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o`yinlarning muhim belgisiundagi qoydalarning mavjudligidir.

O`yinda o`yin niyati, o`yin qoydalari, o`yin harakatlari o`rtasida uzviy aloqa mavjud. O`yin niyati o`yin harakatlarining tabiyatini belgilaydi. O`yin qoydasi esa, o`yin harakatlarini vazifasini hal etishga va o`yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyati takomillashadi. O'yin qoydasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda «Xaltachada nima bor?» o'yinining maqsadi o'yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va o'yinchoqlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash tovushlarini chiniqtirish.

«Bu nima?» o'yinida bolalar qo'g'irchoqqa har xil narsalar va ularni ishlatishi haqida so'zlab beradi. Bunday o'yin guruhda, bog'cha maydonchasida, uxlash xonasida o'tkazilishi mumkin. Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtirib qo'ymasdan, balki shu narsalarning shakli, rangli, katta kichikligi bilan tanishtiradi. Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. O'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy belgisini ajrata bilishga sharoit tug'dirishi lozim.

Shakl haqidagi tushunchalarni «Xaltachada nima bor?», «Nima o'zgaradi?», «O'yinchoqlar do'koni», «Qo'g'irchoqni kiyindiramy», «Bu nima?» va boshqa o'yinlar orqali aniqlash va mustahkamlash mumkin. Qo'g'irchoq-bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin : «Qo'g'irchoqni kiyindiramy», «Qo'g'irchoqni sayrga chiqaramiz», «Qo'g'irchoqni mehmon qilamy», «Qo'g'irchoqlar bayrami», «Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni», «Qo'g'irchoqni uxlatamy». Tarbiyachi bolalarning narsalar, ularning nomlari, belgi, sifatlari, nima ishlatilishi bilan tanishtirib qo'ymasdan, maxsus predmetlar orqali ularni turlarga ajratishni o'rgatib boradi: ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar kastyulka, tarelka, choynak-idish-tovoq. O'yinlarni narsa va buyumlarni tasvirllovchi rasmlar orqali o'tkazish ham mumkin. Bularga «Bu narsa o'zi haqida nima deydi?», «Kim

birinchi bo`lib aytib beradi?», «Kim biladi?», «Qaysinisi bir xil, qaysinisi har xil?» kabi o`yinlarni ko`rsatsa bo`ladi. Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun «Hidiga qarab top», «Mazasiga qarab top», «Ushlab ko`rib top», «Kim nimani eshitayapti?» kabi o`yinlarni ko`rsatsa bo`ladi, katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o`yinlar o`zining mazmuni va g`oyasi tomonidan mustahkam. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilan o`tkaziladigan didaktik o`yinlar o`tkazilib qolmay, so`zli didaktik o`yinlar ham o`tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o`tkaziladigan didaktik o`yinlarda bolalarning narsalar sifati, mazmuni, nimadan yasalgani, qayerda ishlangani, nima uchun kerakli va boshqalar haqidagi bilim aniqlanadi va mustahkamlanadi. Bunday o`yinlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin.

«Bu nimadan ishlangan?», «Guruh xonasiga sayohat», «Tovushga qarab top» va boshqalar. Umumlashtirilgan o`rgatish bo`yicha turlarga ajratishni o`rgatuvchi o`yinlar katta o`rin egallaydi. «Qaysi fabrikada nima ishlab chiqariladi?», «Fabrikada nima ish ishlanadi? Dalada nima yetishtiriladi?», «Kimga nima kerak?», «Sayohat», «Pochta» va boshqalar. Bolalarda dastlabki matematik ta`sirlarni rivojlantiruvchi didaktik o`yinlar ham o`tkaziladi. Masalan : «Kim sanashni biladi?», «Yuramiz, yuramiz, to`xtaymiz!», «Bizning kun», «Yil fasllari» va boshqalar.

Boshqa o`yinlar kabi, didaktik o`yinlarga ham tarbiyachi rahbarlik etishi lozim. Birinchi navbatda didaktik o`yinga xos unga kerakli materialni tanlash kerak. Barcha guruhlar didaktik bezashlarga, bo`yi 40, 50 sm keladigan qo`g`irchoqqa ega bo`lishi lozim. Uning bezalishiga quyidagilar kiradi:

- a) ichki kiyim, ko`ylak, rezinka, uzun noski.
- b) satin, shoyi ko`ylak, fartuk, qish paltosi, kuzgi palto.
- d) bosh kiyimlar: shapka, qalpoq, shlyapa.
- e) oyoq kiyim: tufli, sandal, yumshoq oyoq kiyim.

f) yotadigan, oshxonada ishlatiladigan narsalar-ko`rpa-to`shak-matras, odeal : dasturxon, salfetka. Bu barcha narsalar o`ziga xos rangda, har xil sifatli gazlamadan tikilgan va nomi ham har xil bo`lishi kerak.

Qo`g`irchoqdan tashqari har xil hayvonlar, qushlar, idish-tovoqlar va transportni ifodalovchi o`yinchoqlar ham bo`lishi kerak. Bolalar bog`chasida tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturiga muvofiq bir qancha rasmlar turkumi bo`lishi kerak.

a) insonlarni polizdagi, uy sharoitidagi mehnatni ifodalovchi, ularning mehnatini yengillashtiruvchi mashinalarning rasmlari.

b) insonlarning turar joylarini ifodalovchi rasmlar.

d) insonlarni suvda, quruqlikda, havoda olib yuruvchi vositalarning rasmlari.

e) uy buyumlari: idish-tovoq, mebel, madaniyat buyumlari, bezakli buyumlar, o`yinchoqlar.

f) dasturxon, sochiq, odeal, yostiq, qishgi, yozgi, bahorgi, kuzgi ko`ylaklar, bosh kiyim, yil fasllariga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlari.

g) foydalaniladigan narsalar: oziq-ovqatlar, mevalar, uy buyumlari, mazali narsalar.

h) uy va yovvoyi hayvonlar.

i) daraxtlar, butalar, gullar va boshqa o`simliklar.

j) qushlar.

Bu rasmlar asta-sekin to`plab boriladi. Ular katta va karton qog`ozlarga yopishtirilgan bo`lishi kerak. Didaktik o`yinlarda tabiat materiallari va oddiy narsalarni qo`llanadi. Didaktik o`yinlarga vaqt ajratilishi va bolalar kun tartibida ma`lum bir o`rin tutishi kerak. Didaktik o`yinlarga mashg`ulot bilan bog`liq olib

borishni yaxshilab o`ylab amalga oshirish lozim. Bu o`yinlar mashg`ulot bilan o`yin soatlarida o`tkaziladi. Ularda butun guruh bolalari bilan kichkina guruh va ayrim bolalar bilan o`tkazilishi mumkin. O`yinning mazmuni va undan kelib chiqadigan natijaga oldindan yaxshilab tayyorlaniladi.

Didaktik o`yin davomida bolalar o`rtaga qo`yilgan masalani yechishda sabrli bo`lishga, qiziquvchanligiga, diqqat bilan tinglab, baland pastiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o`rgatib boriladi. Aniq o`ylab olinadi.

O`yinning g`oyasi o`yin harakatlari, qoidasi va o`yinning davom etishi shunga bog`liq. Masalan : «Kim qanday qichqiradi?» o`yinida har xil vazifa qo`yilishi mumkin.

1. Bolalarni hayvonlarning tovushini bilib-bilmasligini aniqlash.
2. Hayvonlar haqida tushuncha olish.
3. Bolalar hayvonlarni tovushidan tanib oladimi yoki yo`qligini bilish.

Har bir vazifa o`yinga o`zining yaxshi g`oyasini singdiradi. Bolalarni o`yin qoidasi bilan tanishtirish zarur. Kichik yoshdagi bolalarga o`yinning hamma qoidasi oldindan berilmaydi. O`yin davomida tarbiyachi qoidani harakatlar bilan bog`lab olib boradi. Buning uchun u qoidani qanday tartibda tushuntirib berishni oldindan o`ylab qo`ygan bo`lishi kerak. Kichkina bolalar o`yinlarida hamma bolalarga umumiy bo`lgan qoida beriladi. Katta o`yinlarda esa o`yin qatnashuvchilariga har xil qoida berilishi mumkin.

Topishmoq aytadiganlar uchun bir qoida topadigani uchun boshqa qoida va boshqalar.

Bu qoidalarning hammasi birgalikda bolalarning o`yinidagi axloqini tartibga solib turadi. Didaktik o`yinlarda majburiy qoidalar juda ko`p uchramaydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so`raganda javob berish, do`stiga quloq solish, o`ynaganda boshqalarga halaqit bermaslik, qoidani bajarish va boshqalar. Didaktik

o`yinlarda bolalarning o`ziga xos xususiyatlari e`tiborga olinadi. Ayrim bolalarga qiyin topishmoq aytilsa, boshqasiga engilroq, osoni aytiladi, yomon gaplashadigan bolalar ko`proq so`zlashga o`zini qaratadi. Didaktik o`yinga rahbarlik etishga o`yinning maqsad va mazmunini belgilash, o`yin g`oyasini o`ylab topish o`yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish bolalar o`rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta`sir orqali o`yin davomida rahbarlik qilib boorish va boshqalarni o`z ichiga oladi.

Ilk yoshli bolalar uchun didaktik o`yin ta`lim berish shakli hisoblanadi. Bu bo`lsa tarbiyachining bolalarning bilimiga qiziqishlarini ta`minlash uchun didaktik o`yinlarni mashg`ulotlarda ma`lum maqsadga qaratilgan ta`lim berish bilan qo`shib olib borish talab etiladi. Ixtiyoriy diqqat, kuzatuvchanlik, ko`rish, quloq solish va eshitish tarbiyasining ko`rsatmalari va uni bajarish o`yinga qaratilgan ko`proq mashg`ulotlarga loyiq amalga oshiriladi. Katta va tayyorlov guruhlarida talim berish didaktik o`yinlar bilan bog`liq holda olib boriladi. Biroq bu yoshda bolalarga mashg`ulotlar orqali ta`lim berish kerakligi muhim o`rin tutadi, sababi ular o`quv faoliyatining eng oddiy shakllarni, bilimlarni mashg`ulotlarda egallab oladi.

Didaktik o`yinlarda tarbiyachining so`zi, ko`rgazmali qurollar bolalarning o`yinchoqlar, buyumlar, rasmlar bilan bo`ladigan harakati bilan qo`shib olib borilishi lozim.

Ko`rgazmalilikka quyidagilar kiradi. 1) O`yin asosini paydo etuvchi buyumlar; 2) Buyumlarning asosiy belgilari mazmunini ifodalovchi rasmlar; 3) O`yin qoidasini, harakatini bajarib ko`rsatish.

So`z bilan tushuntirish orqali tarbiyachi bolalar diqqatini o`ziga qaratadi, tajribasini kengaytiradi. Tarbiyachi bolalarning o`yinlariga rahbarlik qilganda uni paydo etishning har xil shakllaridan foydalanadi. Agar o`yin o`z mazmun va tuzilishiga ko`ra tarbiyachining bolalar bilan yaqin munosabatda bo`lishi ko`rsatilsa, unda bolalarni yarim doira shaklida o`tkazib o`zi o`rtasida o`tiradi.

O`yinni tarbiyachi bolalarda o`yinga qiziqish uyg`otgan holda tugatishi kerak, ya`ni bolalar shu o`yinni yana davom ettirishni xohlasin.

Tarbiyachi bunday deydi : «Kelgusi safar bundan yaxshiroq o`ynaymiz» yoki «Yanagi o`yin bundan ham qiziqarli bo`ladi». Tarbiyachi o`yinining yangi variantini ishlab chiqadi. Tarbiyachi bolalarning o`yiniga har xil qurollar bilan rahbarlik qiladi. Masalan, o`yinda bolalar bilan birgalikda qatnashib, ularga sezdirmasdan o`yinni kerakli tomonga buradi.

2. Bolalarning tashabbuslarini qo`llab quvvatlaydi.

3. O`yin tajribasidan ular bilan birgalikda quvonadi. U o`yinda qatnashmasligi ham mumkin. Biroq tajribali pedagog buni bolalarga sezdirmay qurolsiz amalga oshiradi, bolalarning o`yin vaqtidagi harakatini qo`llab quvvatlaydi.

**Shunday qilib didaktik o`yin** maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta`lim berish vositasi bo`lib, uni loyiq turda amalga oshirishga yordam beradi.

Sehrli xaltacha .

Didaktikaning vazifasi: bolalarni predmetlarning xarakterli belgilari bo`yicha tanishishga o`rgatish.

**O`yin qoidasi :** Ushlab ko`rish orqali predmetni tanish. Xaltachadan predmetni olmay turib to`g`ri topsa, u ochiladi, agar to`g`ri topilmasa ochilmaydi.

**O`yin harakatlari:** Predmetni ushlab ko`rish predmetlar haqida topishmoqlar yechish.

**O`yinining borishi:** O`yinni tashkil qilib tarbiyachi bolalarga tanish bo`lmagan narsalarni tanlab oladi. bolalarni yarim doira shaklida o`tqazib, qisqa suhbatlashish o`tkazadi. So`ng bir qancha bolalardan predmetlarning nomini takrorlatib, u nima uchun kerak ekanligini so`raydi.

Tarbiyachi : Hozir bizlar o`ynaymiz. Men kimni chaqirsam u xaltaga nima solinganini topishi kerak.

Murod, stolning ustidagi barcha narsalarga diqqat bilan qarab ol. Esingda saqlab qoldingmi? Endi orqaga qara men o`yinchoqni xaltaga solaman, mening nima solganimni topishing kerak. Narsani xaltachaga soladi. Murod xaltaning ichiga qo`lini suqib, u yerda nima borligini topadi. Sen to`g`ri topding. Endi Muroddan keyingi o`yinchini o`rtaga taklif etadi. O`yin shunday davom etadi. Barcha narsalar atalishi kerak. Bu o`yinda esda saqlash jarayoni rivojlanadi, chidamlilik shakllanadi. Nomi atalib chiqqan boladan boshqalari tarbiyachi xaltaga nima solganligini ko`rib o`tiradi. Aytgisi keladi, biroq bunday qilishga bo`lmaydi. Bu o`yinni boshqacha tashkil etsa ham bo`ladi. Bunda xaltaga barcha o`yinchoqlar solinib, bolalar nima solinganligini bilmasligi ham mumkin. Chaqirilgan bola xaltaga qo`lini solib bir predmetni ushlab olib ko`rsatadi. Xaltacha ochilib, to`g`ri topilgan o`yinchoq ko`rsatiladi.

Mazasiga qarab top

**O`yinning maqsadi:** Bolalarni sabzavot va mevalarning mazasiga qarab aniqlashga o`rgatish (mazali, achchiq, tuzli) bo`ladi, tilni faollashtirishni rivojlantirish.

**O`yin qoidasi:** sabzavotga qaramasdan aniq mazasini topib yegan narsaning mazasini so`z bilan yetkaza olish sabzavotni bergunicha chidamlilik bilan kutib turish.

**O`yin harakatlari:** ko`zni yumib, qaramasdan sabzavotni yeb bo`lguncha javob berishga oshiqmaslik. Xatolashganlarga boshqa meva va sabzavotlarni yedirish.

**O`yin borishi:** tarbiyachining stolida bolalarga tanish bo`lgan sabzavot va mevalar podnosta turadi. Bodring sof va tuzlangan, sabzi, karam, rediska, olma, nok, va boshqa narsalar. 2 podnosda ular kichkina bo`laklarga kesilgan holida qo`yiladi, ular bolalarga yeydigan bo`lishi kerak. Tarbiyachi podnosi bilan barcha

o`yinchilarning yoniga borib ko`zlarini yumdirib og`izlariga bo`laklardan solib chiqadi. Bolalar ko`zlarini ochmasdan mazasi va hidi bo`yicha nima ekanligini topish kerak. So`ng stolning ustida turgan sabzavot va mevalarni borib topadi.

2. O`yinni tashkil etishda gigiyenik qoidalarini saqlash kerak. O`yinni guruhdagi barcha bolalar yoki yarim guruh bilan o`tkazishga ham bo`ladi.

**3. Bu qachon bo`ldi?: Didaktik vazifasi:** bolalarning yil va fasllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularning belgilarini atash orqali bog`lanishda gapirishni, diqqatini, topqirligini, chidamligini rivojlantirish.

O`yin qoidasi: strelka kimga borsa shu kartinani aytib beradi.

O`yin harakatlari: kartinalarni toppish, strelkani aylantirish.

**O`yining borishi:** bolalar stol atrofida o`tiradi.

Tarbiyachining qo`lida har bir fasl haqida ikki-uchtadan kartinalar bo`ladi. misol uchun qish manzarasi, qishgi o`yinlar, qishgi bolalarning mehnati, qushlarni ovqatlantirish va boshqalar.

Tarbiyachi o`yinining qoidasini tushuntiradi.

Bolalar bugun bizlar bunday o`yin o`ynaymiz. Mening qo`limda bir qancha kartinalar bor. Men ularni sizlarga ularni birdan ko`rsatmayman, tarqatib beraman, so`ng bir-biringizga ko`rsatmang.

Rangli geometrik shakllardan naqshlar (bezaklar) yasash o`yini

**O`yinining maqsadi:** Narsalarning xossalari (rangi, shakli, o`lchami), fazoda o`zaro joylashuvlari haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash.

O`yin uchun jihozlar: Doirachalar, kvadratchalar, flanelegraf taxtachasi.

**O`yinining borishi.** Bolalar tarbiyachi aytgan 3 ta doiracha — sariq, yashil va ko`k rangdagi doirachani shunday qo`yishlari kerakki, bunda ko`k doiracha ustida, yashil doiracha esa sariq va ko`k doiracha orasida, sariq

doirachadan o`ngda ko`k kvadrat, chapda esa qizil kvadrat bo`lsin (mashqni oldin flanelegrafda, so`ngra esa stollarda bajarish mumkin).

«Ha» va «yo`q» deb gapirmaslik,

«Qora» va «oq» deb aytmaslik o`yini

*O`yinning maqsadi.* Bolalarning narsalarning rangini, o`lchamini, shaklini aniqlashga doir tushunchalarini mustahkamlash.

O`yin uchun jihozlar: Rangli shakllar.

*O`yinning borishi.* Bolalarning hammasi o`z o`rinlarida o`tiradilar. O`yinni tarbiyachi boshlaydi. Bolalardan birining oldiga kelib savollarni shunday berishga harakat qiladiki, bunda bola o`yin davomida taqiqlangan so`zlar («ha», «yo`q», «qora», «oq») ning aqalli bittasini aytsin. Bolalar narsalarning rangini, o`lchamini, shaklini aniqlovchi boshqa so`zlardan foydalanishga majbur bo`ladilar. Masalan, uchburchak shaklini olaylik. U kattami? (uchburchak kichikmi?), nega kichkina ekan, u katta, oq (uchburchak kichkina, sariq), nega sariq ekan, u oq. Biron joyda bola adashishi, ya`ni taqiqlangan so`zlardan foydalanishi mumkin. Masalan, yo`q, u oq emas. Bu holda bola o`yindan chiqadi. Tarbiyachi navbatdagi bolani oldiga keladi va o`yin davom ettiriladi.

Qulog`imga ayt o`yini

O`yinning maqsadi. Bolalarning fikrlash malakasini oshirish va rivojlantirish.

O`yin uchun jihozlar: Flanegraf, geometrik shakllar.

*O`yinning borishi:* Flanegraf taxtasiga geometrik shakllar qo`yiladi. Bolalarga bu shaklda nechta kvadrat borligini aniqlab, so`ng tarbiyachining qulog`iga aytishlari tushuntiriladi. Shundan keyin har bir tarbiyachining oldiga borib javobini eshitishga harakat qiladi. Javobini to`g`ri aytgan bolaga to`g`ri aytding, deb sekingina rag`batlantiriladi. Noto`g`ri aytsa «bir

oz o`ylash kerak» deyiladi. Bu o`yinda uyatchan bolalar ham xato aytishdan qo`rqmaydilar. Chunki uning javobini faqat tarbiyachi eshitadi.

Bizning kun o`yini

O`yinning maqsadi: Bolalarning sutka qismlari (vaqt) ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

*O`yin uchun jihozlar:* Kun davomida ketma-ket davom etadigan xilma-xil faoliyatlar tasvirlangan rasmlar (foto rasmlar): o`rinni yig`ishtirish, nonushta, mashg`ulot va boshqalar.

*O`yinning borishi:* Rasmlar o`yin qatnashchilariga tarqatiladi. Boshlovchi o`zida birinchi rasmni qoldiradi. U o`yinni boshlaydi: «Alisher bilan Dilshod ertalab turib o`rnini yig`ishtirishmoqda». Boshlovchi o`zidagi rasmlarni bolalarining oldiga qo`yadi, keyingi rasm kimda bo`lsa, o`sha bola «ular yuvinishyapti», deb davom etadi va rasmni uning o`ng tomoniga qo`yadi va hokazo. Hamma rasmlar tartibi bilan qo`yib bo`lingach, o`yin tugaydi.

Bir yoki ikki o`yini

O`yinning maqsadi: Sonlarni buyumlarda, raqamlarda ifodalash haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

O`yin uchun jihozlar: Buyumli rasmlar, raqamli kartochkalar.

*O`yinning borishi:* Tarbiyachi (bir yoki ikki) narsa tasvirlangan rasmlarni, sonli shakllarni ko`rsatadi, bolalar esa unga javoban har gal mos raqamni yoki sonli kartochkalarni ko`rsatadilar.

To`g`ri va tez ko`rsatgan bolalar rag`batlantiriladi.

Bu o`yinni bolalarning sonlar haqidagi bilimiga qarab murakkablashtirib borish ham mumkin.

Kim ketib qoldi, qayerda turgan edi o`yini

O`yinning maqsadi: Bolalarning eslab qolish qobiliyatini mustahkamlash.

*O`yinning borishi:* Bir bolani o`rtaga va yana 4 ta bolani uning oldiga, orqasiga, chap va o`ng tomoniga qo`yadi. O`rtadagi bola kim qayerda, turganini aytadi va ko`zini berkitadi. O`qituvchining taklifi bilan bolalardan biri chetga chiqadi. Boshqaruvchi kimning chiqib ketgani va u oldin qayerda turganini aytib beradi.

Yashiringanlarni top o`yini

*O`yinning maqsadi:* Bolalarni tartibli sanashga o`rgatish.

*O`yin uchun jihozlar:* Ona tovuq va jo`jalar, o`rdak va o`rdak bolalari. (Jihozlar sonini bolalarning bilim darajasiga va son haqidagi tushunchasiga qarab olinadi.)

*O`yin mazmuni:* Stol ustiga o`yin uchun yaroqli ji hozlar tayyorlab qo`yiladi. Bolalar o`yin mazmuni bilan tanishtirilgandan keyin, parrandalarning bolalari onasining oldidan qochib ketadilar va yashirinadilar. Tarbiyachi jo`jalarni xonaning har yeriga, bolalarni topishi qulayroq joylarga yashirib qo`yadi. Shundan so`ng o`quvchilarga jo`jalarni topib kelish vazifasi topshiriladi. Bitta o`quvchi tovuq jo`jalarini, yana bitta o`quvchi o`rdak bolalarini topib keladi va olib kelgan jo`jalarini sanash yo`li bilan vazifani bajaradilar. Jo`jalarning soni yetishmasa, onasi qaqolab jo`janing kamligini ma` lum qiladi (bu vazifani boshqa bir bola bajarishi ham mumkin). Shundan so`ng o`quvchi yana yetishmagan jo`jani qidira boshlaydi. Jo`janing hammasi topilgandan keyin bolaga yana bir marta sanab chiqish taklif etiladi. Demak, tovuq bolalari beshta, o`rdak bolalari esa to`rtta ekan, deb yakunlanadi. Shu tariqa o`yinni boshqa bolalar bilan bir necha marta takrorlash mumkin.

O`yin uchun sharoitiga qarab boshqa turli mayda o`yinchoqlardan foydalanish yoki bo`lmasa qalin kartondan turli parranda, hayvonlarning shaklini bolalar bilan birgalikda qirqib olish va bo`yash yo`li bilan kerakli materiallarni tayyorlash mumkin.

O`yinchoqlarni olib kel o`yini

*O`yin*ning maqsadi: Bolalarning tartibli sanash qobiliyatlarini mustahkamlash.

*O`yin uchun jihozlar*: Turli xil o`yinchoqlar, ikkita quyoncha, ikkita koptok, bitta qo`g`irchoq va boshqalar.

*O`yin mazmuni*: O`yinchoqlarning hammasi alohida bitta stolga terib qo`yiladi. Tarbiyachi nariroqdagi boshqa stol yonida o`tirib, bolalardan birini o`yinchoqlar terib qo`yilgan stol yoniga taklif qiladi va istagan o`yinchoqni olib kelishni buyuradi. Bola bitta quyoncha, bitta koptokni olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi boladan: qani nima va nechta o`yinchoq olib kelding, o`rtoqlaringga so`zlab berchi, deydi.

Bola javob beradi: bitta quyon, bitta koptok hammasi bo`lib ikkita o`yinchoq, ikkita koptok, bitta qo`g`irchoq hammasi uchta o`yinchoq. Shu tariqa o`yin davom etishi mumnn.

O`yinda foydalanish uchun qo`yiladigan narsalarning soni dastur talabiga ko`ra ko`paytirilib borilishi mumkin.

Xonadonlarni odamlar bilan to`ldir o`yini

*O`yin*ning maqsadi: Sonlar tarkibi haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

O`yin uchun jihozlar: Raqamli kartochkalar (qizil va yashil rangli), jadval.

*O`yin*ning borishi: Duskada jadval osilgan bo`ladi. Jadvalda cho`ntakcha bo`ladi. Bu joyga raqamlar solinadi. Masalan, olti sonining tarkibini mustahkamlash kerak, deylik. Jadvalning tepasiga olti raqamini (qizil) solib qo`yamiz. Bu yangi bino qurilib bo`lgan, endi xonadonlar ko`chib kelmoqda. Har qaysi qavatda oltitadan kvartira bor degan ma`noni bildiradi. Har bir qavatiga, ya`ni besh qavatga beshta oila ko`chib kelgan, to`rtinchi qavatga uchta oila ko`chib kelgan, uchinchi qavatga to`rtta oila, ikkinchi qavatga ikkita oila, birinchi qavatga esa bitta oila ko`chib kelishi

kerak. (1, 3, 2, 4, 5) deyiladi. Kartochkalar jadvalga qo'yiladi. Shundan keyin, demak 6 bu 5 va 1; 3 va 3; 4 va 2; 4, 1 va 1; 1 va 5 ekanligini tushuntiriladi.

Hayvonot bog'i o'yini

O'yinning maqsadi: Ma'lum sonni sanash ko'nikmalarini mustahkamlash.

O'yin uchun jihozlar: Ikkita o'yinchoq telefon, oltita yoki sakkizta ayiqcha (boshqa mayda o'yinchoqlar ham bo'lishi mumkin).

O'yinning borishi: Bitta bola hayvonot bog'ining direktori, ikkinchi bola hayvonot bog'ining xizmatchisi rolini bajaradi. O'yin dialog tariqasida olib boriladi.

Erkin — telefonda: (hayvonot bog'ining direktori): — Alisher senda bo'sh kataklar bormi?

Alisher — Ha, bir necha bo'sh kataklar bor.

Erkin — Bizga yangi hayvonlar keltirildi, kelib ko'rishing mumkin.

Alisher — Hozircha bandman, vaqtim yo`q.

Erkin — Nechta bo'sh katak bor, anig'ini aytgin menga.

Alisher — Hozir hisoblab aytaman (bir oz jim turadi), sakkizta deb javob qiladi.

Erkin — Bu yangi hayvonlarni ham tezlik bilan joylashtirish va ovqatlantirish kerak.

Alisher — Har bir ayiqni alohida katakka qo'yilsa, ikkitasi ortib qolar ekan.

Erkin — yaxshi, yana yangi keltirilgan hayvonlarni qolgan ikkita katakka joylashtirishimiz mumkin bo'ladi.

Qolgan bolalar oldilaridagi belgilar yoki turli mayda o'yinchoqlar orqali masalani yechib boradilar.

Xulosa

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash kerak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish ushbu "Bolalarni rivojlantirish va maktabgacha tayyorlash" tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

O'yinlardan didaktik maqsadlarda foydalanishga oid yo'nalish XVIII asrda pedagoglar faoliyatida keng rivojlandi. O'yinda bolaning insoniy faoliyatining eng umumiy, eng asosli ma'nodagi xatti-harakati namoyon bo'ladi. Shaklan va mazmunan rang-barang bo'lgan o'yinlar bolani mavjud hayotiy hodisalar doirasiga olib kiradi, bunda kattalarning bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, ijtimoiy tajribalarini oldindan o'zlashtirish ta'minlanadi. O'yinda bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat, muomala usullari shakllanadi, hissiyot va didi tarbiyalanadi.

Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. O'yin bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli o'yin aqliy tarbiya vositalaridan biridir. Bola o'yinda atrof muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib ularni hayolan qayta tiklaydi. Bunda bu obrazlar va taassurotlardan foydalanadi. Bola tasvirlayotgan hodisalar haqidagi bilimlarni o'z mushohadalarida ifodalaydi, bu uning konkret buyumdan u haqida fikrlashga o'tganini bildiradi.

Tarbiyachi kun bo'yi har bir bolaning o'yinida ko'p martalab ishtirok etadi, unga o'yinchoqlar va buyumlar bilan muomala qilishning turli yo'llarini ko'rsatadi, maqsadga qaratilgan harakat qilishga, buyumga uzoq vaqt diqqatni buzmay qarab turish va u bilan harakat qilishga o'rgatadi. Buyumli o'yin

buyumlar, ular bilan harakat qilish haqidagi tasavvurning tartib topishiga yordam beradi, idrok va diqqatni rivojlantiradi.

Syujetli -rolli o`yinlar mohiyati e'tibori bilan bolaning uchinchi yoshi so`ngida vujudga keladi. Ularning paydo bo`lishi qator shartlar bilan bog`liqdir, chunonchi atrof-muhitdan olingan rang-barang taassurotlarning mavjudligi buyumli-o`yin harakatlarining to`planishi o`yinchoqlarning mavjud bo`lishi kattalar bilan muomalaning ko`payishi bolalar mustaqilligini rivojlanishi bilan.

Chunki davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishga ko`p jixatdan bog`liqdir. O`z navbatida jamiyat va millatning hamda ma'naviy darajasi bilan belgilanadi.

Didaktik o`yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg`ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o`yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o`yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o`yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini zaruriy jihozlar bilan ta'minlash,shu asosida bolani rivojlantiruvchi muhitni ro'yobga chiqarish aksariyat muassasaga byudjet mablag'ini ajratish asosida bosqichma-bosqich hal etiladi. Biroq, masala yangitdan qurish, qayta jihozlash, o'zgartirish, qo'shimcha binolar yoki bloklar qurish ko'zda tutilsa, kapital ta'mirlash hisobiga oldindan adresli reja dasturiga kiritish orqali hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»-T: Sharq, 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2006.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar., 13-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
5. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011.
6. «Bolajon» tayanch dasturi. - T.: «Sano-standart», 2010.
7. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.norn. ... diss, avtoref.-f.: 1998.- 18 b.
8. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. -T., 2010.
9. “ Maktabgacha pedagogika” Sh. Sodikova. Toshkent - 2013
10. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.
11. Boboeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining asosiy mezonlari/7 Pedagogik ta'lim j.-T.; 2001. 2-son. 65-66-b.
15. D.Sharipov va bashqalar. Agar bolam sag'lom bo'lsin desangiz. Toshkent 2006.
16. “Maktabgacha ta'lim”jurnali №2, 2014
17. “Maktabgacha ta'lim”jurnali №6, 2014

18. “Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” mavzusidagi seminar trening materiallari. –T.: 2002.
19. K.Nizomova. 6-yoshli bolalarni maktabga tayorlash va maktabga maslashuvni o’rganish. Toshkent 2006.
20. F.Nazarova. Maktabgacha ta’lim muassalarida psixologik xizmat va me’yoriy hujjatlar. Toshkent 2007.
21. Z.Raxmonqulova, N.Qurbonova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini shakllantirish. Toshkent 2009.
22. G.Q.Jalalova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. Toshkent 2004.
23. M.G’aybullaeva. Farzandlarimizni allalab, erkalab o’stiramiz. Toshkent 2006.
24. D.J.Sharipova.Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida. Toshkent 2007.
25. Qadirova, Fayzulaeva. Katta guruh tarbiyachilari uchun nutq o’stirish mashg’uloti ishlanmalari. Toshkent 2007.
26. Qadirova, Fayzulaeva, Rustamova. Tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun nutq o’stirish mashg’uloti ishlanmalari. Toshkent 2010.
27. K.M.Maxkomjonov, M.SH.Rasulova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy-tarbiyasi. Toshkent 2006.

www.ziyonet.uz

www.pedagogika.uz

www.ref.uz

www.Google.uz

Matematik KVN o`yini

*O`yinning maqsadi:* O`quvchilarning musobaqalashish sharoitida vazifani mustaqil bajarish qobiliyatlarini o`stirish.

O`yin uchun jihozlar: Raqamli kartochkalar, shakllar, lenta, turli rasmlar va kartochkalar.

*O`yin qoidasi:* Bolalar ikki guruhga bo`linadilar. Qaysi guruh ko`proq ochko olsa, shu guruh yutib chiqadi. Ularga bayroqcha beriladi.

*O`yinning borishi:* Tarbiyachi, bugun sizlar bilan quvnoq hozirjavoblik o`yinini o`ynaymiz, deb o`quvchilarni ikki guruhga bo`ladi va ularga o`yin mazmunini tushuntiradi: — Sizlar hammangiz mening gaplarimga quloq solib turinglar, berilgan vazifalarga tezlik bilan javob topishga harakat qilinglar. Qaysi guruh ko`p ochko to`plasa, u yutib chiqadi. Men har bir to`g`ri javoblaringiz uchun bittadan belgi qo`yib boraman (guruhlarga yulduzcha, raketa, kosmos va boshqa nomlar ham qo`yish mumkin). Shundan keyin vazifalarni e`lon qila boshlaydi.

Birinchi vazifa: Bolalar hammangizning oldingizda doirachalar chizilgan qog`oz turibdi, bu hovuz deb ataladi. Qurbaqalar sakrab-sakrab yettitasi hovuzda to`xtashlari kerak.Qani, hammamiz bajaramiz.Boshladik, deydi. Tarbiyachi guruhlarning vazifani qanday bajarayotganliklarini kuzatib, tekshirib boradi. Qaysi guruh oldin va to`g`ri bajarsa, ularga ochko beriladi.

Ikkinchi vazifa: endi «Katta va kichik sonni top o`yini»ni boshlaymiz. Men sizlarga biror sonni aytaman, sizlar sonli kartochkalarinigizni olib men aytgan sondan qaysinisi katta va qaysinisi kichkina ekanligini ko`rsatasizlar, deb tarbiyachi aytadi.

Masalan, yettidan oldin qaysi son turadi, yettidan keyin qaysi son keladi.

Bolalar olti va sakkiz sonlarini ko`rsatadilar.

— Yettidan kichik sonni ko`rsating (bolalar oltini ko`rsatadilar).

— Qaysi son yettidan katta (bolalar sakkiz raqamini ko`rsatadilar).

Shu tariqa tarbiyachi bolalarga tanish bo`lgan sonlar yuzasidan turli misollar keltirishi mumkin.

Bu xildagi o`yinni tarbiyachining o`zi turli variantda guruhdagi bolalarning o`zlashtirish darajasi va bilim doirasi, qiziqishiga, qo`lidagi mavjud didaktik materiallariga qarab tashkil qilishi va o`tkazishi mumkin.

Plyus yoki minus o`yini

*O`yinning maqsadi:* O`rganilgan har xil matnli masalalarni og`zaki yechish.

*O`yin uchun jihozlar:* qo`shish (+), ayirish (—) belgisi yozilgan kartochkalar.

*O`yinning borishi:* Tarbiyachi ketma-ket masalalarni o`qiydi, bolalar esa masalani qaysi amal bilan yechish mumkin bo`lsa, o`sha ishorani ko`rsatadilar. Masalan, Botirning uchta qizil va to`rtta ko`k mashinasi bor. Botirning hamma mashinasi nechta? yoki Lolaning to`qqizta markasi bor edi, u uchta markasini dugonasiga berdi. Lolada nechta marka qoldi.

Tarbiyachi masalani o`qib bo`lgandan keyin, bolalardan plyus (+) yoki minus (—) belgilari qachon qo`yilishini so`rab, ularning bilimini mustahkamlaydi.

Nima o`zgardi o`yini

*O`yinning maqsadi:* o`quvchilarning ziyrakligini, kuzatuvchanligini aniqlash.

*O`yin uchun jihozlar:* o`yinchoqlar, turli katta va kichiklikdagi qo`g`irchoqlar, ayiqcha, mashinacha, piramida, mushuk, it va boshqalar. O`yinchoqlarni soni 8 ta bo`lishi lozim.

*O`yinning borishi:* Tarbiyachi tokchaga qo`g`irchoq, ayiqcha, mashina, piramida, sharni qo`yadi va bolalarga diqqat bilan qarangchi, qaysi o`yinchoqlar turibdi? Ular nechta? Ular qanday qo`yilgan? Ko`zingizni yuming (tarbiyachi ikkita qo`shni — o`yinchoqlar o`rinlarini almashtiradi). yana diqqat bilan qarangchi, hamma o`yinchoqlar o`z joyida turibdimi, deydi? Hammasi to`rtta edi. Qolgan to`rttasi ham turibdi. Nima o`zgaribdi? Ayiqcha bilan qo`g`irchoq o`rni almashgan va hokazo. Bu o`yinda bolalarga qancha son haqida ma`lumot berilgan bo`lsa, shuncha son o`yinchoq olinadi.

